IMPACT FACTOR (RESEARCH BIB) – 7,245
MAXSUS SON . VOLUME 5, ISSUE 1, 2023

BUTUN NOMANFIY SONLARNI NOMERLASHNI O`RGANISH UMUMIY TUSHUNCHALAR

Muallif	**Erkinova Odinaxon Kozimjon qizi**
O'qish yoki ish joyi	**Andijon davlat pedagogika instituti Matematika va informatika yo'nalishi talabasi**
Qabul qilindi	**08.09.2023**
Nashr qilindi	**12.09.2023**

Annotatsiya

O'quvchilarni sonlarni nomlash bilan tanishtirish dasturga binoan 1-sinfdan boshlanadi. Sonlarning nomlanishi hosil bo'lishi, ularni taqqoslash, sonni ulushini topish va berilgan ulushiga ko'ra sonning o'zini topish bilan tanishadilar. 4-sinfda 1 ning ulushi va bir necha ulushi, uning yozma ko'rinishi tasavurlariga ega bo'ladilar. Nomlash tushunchasi geometriyada kesma ulushi, middorlarning ulushi va boshqa geometrik shakllarning ulushlari bilan bevosita bog'langan.

Kalit so'zlar

Nomerlash, sonlar, o'nlik sonlar, yuzlik sonlar, minglik sonlar, nomanfiy sonlar, musbat sonlar, arifmetika kursi.

Annotation

According to the program, introducing students to the naming of numbers starts from the 1st grade. They learn how to name numbers, compare them, find the fraction of a number, and find the number itself according to the given fraction. In the 4th grade, they will have an idea of the fraction of 1 and several fractions and its written form. In geometry, the concept of naming is directly connected with the proportion of sections, the proportion of middors and the proportions of other geometric shapes.

Key words

Numbering, numbers, decimals, hundreds, thousands, negative numbers, positive numbers, arithmetic course.

Аннотация

По программе знакомство учащихся с называнием чисел начинается с 1 класса. Они учатся называть числа, сравнивать их, находить дробь числа и находить само число по заданной дроби. В 4 классе будут иметь представление о дроби из 1 и нескольких дробей и ее письменной форме. В геометрии понятие наименования напрямую связано с долей сечений, долей миддоров и пропорциями других геометрических фигур.

Ключевые слова

Нумерация, числа, десятичные знаки, сотни, тысячи, отрицательные числа, положительные числа, курс арифметики.

KIRISH

Yurtimizda yoshlar berilgan imkoniyatlar va e'tiborlar yanada kuchayib bormoqda, shu asnoda boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish metodikasi rivojlanib bormoqda.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev yoshlarga bildirilgan ishonchni limmo-limligi shu so'zlaridan ham ko'rinib turibdi.

"Shuni unutmasligimiz kerakki, kelajagimiz poydevori bilim dargohlarida yaratiladi, boshqacha aytganda, xalqimizning ertangi kuni qanday bolishi farzandlarimizning bugun qanday talim va tarbiya olishiga bogliq.

Buning uchun har qaysi ota -ona, ustoz va murabbiy har bir bola timsolida avvalo shaxsni korishi zarur. Ana shu oddiy talabdan kelib chiqqan holda, farzandlarimizni mustaqil va keng fikrlash qobiliyatiga ega bolgan, ongli yashaydigan komil insonlar etib voyaga yetkazish – talim-tarbiya sohasining asosiy maqsadi va vazifasi bolishi lozim, deb qabul qilishimiz kerak. Bu esa talim va tarbiya ishini uyg'un holda olib borishni talab etadi"

METODOLOGIYA

Butun nomanfiy sonlarni nomerlash va ular ustida arifmetik amallar bajarish boshlang'ich matematika kursi asosini tashkil qiladi. Butun nomanfiy sonlar ustida ishlash boshlang'ich maktabda 4 yil o'qish davomida olib boriladi. Matematika dasturi natural sonlar va nolь haqidagi ma'lumotlarni o'nlik, yuzlik, minglik, ko'p xonali sonlar konsentrlari bo'yicha kiritishni nazarda tutadi. Har bir konsentr o'z mazmuniga ko'ra sistematik arifmetika kursining asosiy masalalarini aks ettiradi, shuning uchun o'quvchilar u yoki bu chegaralar ichida sonlarni nomerlashni va bu sonlar ustida amallarni o'rganadilar, umuman arifmetikaning mohiyati to'g'risida tasavvur hosil qiladilar. O'nliklarni ajratish o'nlik sanoq sistemasining xususiyatlari bilan sonlarni og'zaki va yozma nomerlash bilan bog'liq bo'lgan asosiy masalalarni o'rganishga imkon beradi.

1-10 sonlarni o`qish, yozish, taqqoslash, ikkita sondan iborat tarkibi; natural qatorning hosil bo`lish printsipi, matematik simvolika qo`llanilishi, (>, <, k, k, - belgilari) gyeometrik shakllar bilan ishlash, nol (0) soni va raqami, narsalarni ongli va mexanik sanash, guruhlab sanash, didaktik o`yinlar tuzish, 10 tiyinni maydalash va hosil qilish hafta, amal, keyin, santimetr, kg, litr.

MUHOKAMA

100 ichida

«O`nlik», xona, xona birligi, 2 xonali sonlarni o`qi shva yozish qoidalari, son Bilan raqam farqi, sonlarni biriktirish orqali qo`shish va ayirish usullari, distemetr, metr, soat, minut, 20 tiyin, 90 tiyin, 1 so`m maydalash va hosil qilish, taqqoslash, x,: belgilari, og`zaki va yozma nomerlash, abak, gyeometrik shakllari chizish, yasash.

1000 ichida

«Yuzlik», III xona birligi, 3 xonali sonlarni qo`shish va yozish, raqamlarning o`rin qiymati printsipi, 3 xonali sonlarni biriktirish orqali qo`shish va ayirish, taqqoslash, 3 xonali sonni yuzlik, o`nlik,

birliklar yig`inidsi ko`rinishida yozish. Mm, km, kun, oy, yil, sekund, asr, vaqt, diametr, sigment, sektor, dm kub, m kub, narx, ularni boshqa birlikda ifodalash, gyeometrik shakllarni o`lchash, qismlarga bo`lish, taqqoslash.

Ko`p xonali sonlar ichida

«Minglik», «sinf» tushunchasi sonlarning o`nli tarkibi, 4-9 xonali sonlarni o`qish va yozish, taqqoslash, sonlarni 10, 100, 1000 marta orttirish va kamaytirish. O`nli sannoq sistemasi, pozitsion va norozitsion sannoq sistemalari, miqdorlar orasidagi munosabatlarni mustahkamlash cho`tda ishlash sonni tahlil qilish.

Butun nomanfiy sonlarni nomerlash va ular ustida amallar bajarish boshlang`ich matematika kursida asosiy mavzulardan hisoblanadi. Algyebra va gyeometriya elementlari arifmetik bilimlar tizimiga imkoni boricha kiritiladi, natijada son, arifmetik amallar va musbatlar haqidagi tushunchalarni yuqoriroq darajada o`zlashtirish ta'minlanadi.

Natural son va nol ustida ishlash boshlang`ich sinflarda 4 yil o`qish davomida olib boriladi. Matematika dasturi natural son va nol haqidagi ma'lumotlarni asta-sekin 10, 100, 1000, ko`p xonali sonlar kontsentrlari bo`yicha kiritishni nazarda tutib tuzilgan.

Kontsentlarga ajratish o`nli sanoq sistemasining xususiyatlari bilan, sonlarni og`zaki, yozma nomerlash bilan bog`liq bo`lgan asosiy masalalarni takror-takror qarashga imkon beradi.

Birinchi o`nlikni o`rganishda narsalarni sanash, 1-10 sonlarining nomlarini, ketma-ketligi, belgilanishini, sonlarni taqqoslashning turli usullarini (predmetlarning mos to'plamlari ustida amallar bajarish asosida va taqqoslanayotgan sonlarning qatorida egallangan o`rni bo`yicha sonlarning tarkiblarini) o`zlashtirib olish nazarda tutiladi.

NATIJA

O`quvchilarda o`qitishning dastlabki vaqtlaridayoq ba'zi muhim umumlashtirishlar shakllanadi, masalan natural qatoridagi har bir navbatdagi son qanday hosil bo`lishi aniqlanadi, qatorning ixtiyoriy soni bilan undan oldin keladigan va keyin keladigan sonlar orasidagi munosabatlar o`rnatiladi va h k.

O`nlik ichida sonlarni o`rganishda nol soni bilan ham tanishiladi. Bunda nol bo`sh to`plam xarakteristikasi sifatida kiritiladi. Amaldagi dasturga asosan ikkinchi o`nlik alohida kontsentrga ajratilmaydi. Ammo, 100 lik ichida nomerlashni o`rganishda 2 sinf matematika darsligida oldin 11-20, so`ngra 21-100 ichida nomerlash qaraladi. Sonlarni nomerlashni o`rganishda 2-o`nlikni o`rganish sonlarning o`nli tarkibini va raqamlarning o`rin-qiymati printsipini yaxshi o`zlashtirishga yordam beradi, o`quvchilar uchun yangi bilimni shakllantiradi, ya'ni sanoq birligi sifatida o`nlik tushunchasini shakllantiradi.

Shu bilan birga sonlarni og`zaki va yozma nomerlash, shu sonlarning o`nli tarkibi o`rganiladi. Sonlarning natural ketma-ketligi va o`nli tarkibini bilganlik asosida 13-1, 17-1, 10-3, 16-6, 19-10 ko`rinishdagi qo`shish va ayrish hollari qaraladi.

Sonlarni 1000 va ko`p xonali sonlar ichida nomerlashni o`rganishda yuzlik, minglik tushunchalari bilan tanishadilar, yangi sanoq birliklari hosil bo`lish printsipini, sinf tushunchalarini o`zlashtiriladi.

XULOSA

10 ichida sanash sanashni egallash asosi chunki boshqa xona birliklari ham xuddi oddiy birlar kabi sanaladi. Birinchi o`nlik sonlarning nomlari va belgilanishi boshqa istalgan ko`p xonali sonni o`qish va belgilash uchun asos bo`lib xizmat qiladi. Shu sababli o`qituvchining birinchi navbatdagi vazifasi 1-sinfga kelgan bolalarning matematik tayyorgarligi darajalarini aniqlashdan iborat. Bunday tekshirishni bolalarni maktabga qabul qilish vaqtida, yoki dastlabki mashg`ulotlar davomida amalga oshirish mumkin. Bilimlarni tekshirishda atmosfera samimiy bo`lishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Mirzaahmedov M., Ahmedov M. Masalalar yechish metodikasi.//Boshlang‘ich ta’lim, 2014. – №15.

2. M.E.Jumayev, Z.G.Tadjiyeva, O.Toshmetova, Z.Yunusova —Boshlangich sinflarda matematikadan fakultativ darslarni tashkil etish metodikasi” Toshkent 2005 – yil

3, Jumayev M.E., Tojiyeva Z.G‘. Boshlang‘ich sinflarda matematika o‘qitish metodikasi. – T., 2015.

4. Jumayev M.E., „Matematika oqitish metodikasidan praktikum—- Toshkent.: Oqituvchi, 2004, 328 bet.

WORDLY KNOWLEDGE